



## MILLIY O`YINLAR –MILLIY QADRIYATLAR SIFATIDA

**Abdurashidov Adxamjon**

Qo`qon davlat universiteti

Maktabgacha tarbiya kafedrası v.b. professori

adxamabdurashidov@gmail.com

**Annotatsiya:** mazkur maqolada milliy qadriyat sifatida e`zozlanib kelinayotgan xalq milliy o`yinlarining bolalar tarbiyasidagi muhim omil ekanligi aks ettirilgan. Shuningdek o`zbek xalqining asrlar davomida qadrlanib kelayotgan milliy xalq o`yinlarining mazmuni yoritilgan.

**Kalit so`zlar:** milliy qadriyat, milliy o`yinlar, tabiiy vosita, "Devonu lug`atit turk", Chavgon, Ko`pkari, Tepuk

**Аннотация:** В данной статье рассматривается важность национальных игр, почитаемых как национальная ценность, как важного фактора в воспитании детей. Также освещается содержание национальных игр, которые веками почитались узбекским народом.

**Ключевые слова:** национальная ценность, национальные игры, природные ресурсы, «Девону лугатит турк», Чавгон, Копкари, Тепук

**Abstract:** This article examines the importance of national games, revered as a national treasure, as a key factor in children's upbringing. It also highlights the content of national games, which have been revered by the Uzbek people for centuries.

**Key words:** national treasure, national games, natural resources, "Devonu lug'atit turk", Chavgon, Kopkari, Tepuk

Milliy qadriyatlar o`zbek xalqining tarixiy taraqqiyoti, ma`naviy olami, turmush tarzi va ijtimoiy tafakkurining ajralmas bir qismi sifatida avloddan avlodga o`tib kelayotgan urf-odatlar, an`analar, til, din, madaniyat, axloq-odob me`yorlari kabi hayotiy mezonlarni o`z ichiga oladi. Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida milliy qadriyatlarni asrash va ularni yoshlar ongiga singdirish dolzarb ahamiyatga ega. Ayniqsa bolalarga xursandchilik baxsh etadigan o`yin faoliyati alohida o`rin tutadi. Mashhur pedagoglar Y.A.Komenskiy, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, P.F.Lestgaflarning g`oyalari hozirgi zamon bolalar o`yinlari nazariyasi uchun ham ahamiyatlidir:

- «Bolalar o`yini ko`p asrlar tarixga ega- deb yozgan edi B.D.Ushinskiy, - insonning o`zi tomonidan ishlab chiqilgan qudratli tarbiyaviy vosita va shuning uchun ham unda inson tabiatining haqiqiy ehtiyoji ifodalangan».

- Yan Amos Komenskiy o`yinni bola faoliyatining, uning tabiati va mayllariga to`g`ri keladigan zarur shakli deb hisoblardi. Uning fikricha o`yin - bolaning barcha qobiliyat ko`rinishlari rivojlanadigan jiddiy aqliy faoliyatdir, o`yinda borliq haqidagi

tasavvurlar doirasi kengayadi va boyidi, nutq rivojlanadi. Bola o`yin davomida tengqurlari bilan do`stlashadi.

- P.F.Lestgail: bolalar o`z o`yinlarida tevarak-atrofdan olgan tasurotlarini aks ettiradilar, deydi. Bunday faoliyat bolaning rivojlanishida katta ahamiyatga egadir.

Olimlarning fikrlari bo`yicha o`yin ijtimoiy voqea bo`lib, o`yinda tevarak-atrofdagi borliq aks ettiriladi. Ayniqsa milliy o`yinlar xalq tarixiy taraqqiyoti jarayonida mehnat faoliyati natijasida paydo bo`lgan ijtimoiy faoliyatdir. Shu bois ular milliy qadriyat sifatida saqlanib kelinmoqda. Zero, o`zbek xalqining milliy o`yinlari o`zining uzoq o`tmishi, boy tarixiga ega bo`lib, ajdodlardan avlodlarga meros sifatida o`tib kelayotgan, ma'naviy boyligimiz, qadriyatlarimizdan sanaladi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab, milliy qadriyatlarimiz, an'ana-yu udumlarimiz, shu jumladan, xalq milliy o`yinlarini qayta tiklashga katta e'tibor qaratildi.

O`zbek xalq milliy o`yinlari o`z tarixiga ega bo`lib, ota-bobolarimiz ulardan azal-azaldan yosh avlodni jismonan chiniqtirish, salomatligini tiklash va sog`lom turmush tarziga ijobiy ta'sir etuvchi mashqlardan foydalanib kelishgan. Demak, tarixiy ahamiyatga ega bo`lgan o`zbek xalq milliy o`yinlari yosh avlodni kuchli va jasur ajdodlar qilib tarbiyalash, o`z tarixi, madaniyati, an'alariga qiziqish va hurmat tuyg`usini singdirish, har tomonlama barkamol avlodni ma'naviy yuksaklikka chiqarishni o`z oldidagi asosiy maqsadlari deb biladi. O`zbek xalq milliy o`yinlari tarixiy-arxeologik ahamiyatga ega bo`lib, jamiyatning rivojlanishidagi birinchi bosqichi etnografik manbalarda aks ettirilgan. Ayniqsa Mahmud Koshg'ariyning "Devon-u lukati turk" kitobida o'zbek milliy o'yinlari haqida juda ko'p qiziqarli va foydali ma'lumotlar mavjud. Xususan, "Devonu lug'atit turk" asarida quyidagi asosiy milliy o`yinlar uchraydi:

- Chavgon (Polo): Ot ustida tayoq bilan to`p surish o`yini.
- Ko`pkari (Uloq): Chavandozlar o`rtasidagi shiddatli musobaqa.
- Tepuk (Tepuk): Hozirgi futbolning qadimgi ko`rinishi, charmdan tikilgan va ichiga jun tiqilgan to`p bilan o`ynaladigan o`yin.
- Yag`li qochdi (Qochdi-qochdi): Yashirinmashoq yoki quvlashmashoq o`yinlarining turlari.

- Besh tosh: Qo`l barmoqlari chaqqonligini oshiruvchi o`yin.
- Oq terakmi, ko`k terak: Yoshlar o`rtasida ommaviy o`yin.
- Kurash: Jismoniy kuch va ephillikni sinovchi kurash turlari.

Hozirgi kunda ham bu o`yinlar xalq orasida o`tkazilib boriladi. Eng muhimi esa yosh avlodni bu o`yinlarda bo`lgan qiziqishidir. Bolalarni Chavgon, Ko`pkari, Tepuk, Kurash kabilarga tayyorlashda maktabgacha ta`lim tashkilotlarini o`rni alohida ahamiyatga ega. Pedagoglar bolalarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, ularni yosh xususiyatlariga mos o`yinlarni tanlashadi va o`yin ko`nikmalarini shakllantirishadi, masalan, ot minishga o`rgatishda avval yengil xivchin, keyinroq yengil, kichik xodachalardan foydalanishadi. Haqiqiy ot mindirishni esa ota-onalarga tavsiya etishadi. Koptok tepish orqali esa bolalar futbol ko`nikmalari shakllanadi.

Xalq milliy o`yinlari maktabgacha yoshdagi bolalarga ta`lim berishda muhim vosita hisoblanadi. Xalq milliy o`yinlari quvonch keltiradi va bolalarni rag`batlantiradi, ularga yangi ko`nikma va bilimlarni o`rganishga, o`zini va atrofidagi dunyoni bilishga imkon yaratadi. Maktabgacha ta`lim tashkiloti va pedagoglar bolaning o`yin huquqini tan

oladi, o‘yinning bola uchun muhimligini va uning individual rivojlanishi, ta’lim olishi va farovonligiga ko‘maklashishdagi pedagogik imkoniyatlari tan olgan holda, ularni sayrda, mehnatda, ta’limiy faoliyatlarida, bo‘sh vaqtlarida, ertalabki va kechki soatlarda tashkillash qoidalariga rioya etiladi. Xalq milliy o‘yinlari bolalarda jamoa uchun qayg‘urish, iroda, mardlik, jasurlik, chaqqonlik, epchilik tuyg‘ularini tarbiyalaydi, masalan “Qoqma” o‘yining mazmuni keltiraylik:

O‘yinning nomi: **Qo‘qma**

O‘yinning shartlari: pedagog bolalarni 5-6-10 nafardan bo‘lib, 2 jamoani tashkil etadi.

Sanamalardan foydalanib, qaysi gurux a‘zolarining qochishi va qaysi gurux a‘zolarini quvllashlari aniqlanadi. Tarbiyachi har ikki gurux bir-biriga raqib ekanligi tushuntiriladi.

O‘yinning borishi: Bir jamoa a‘zolari qochadi, ikkinchi jamoa vakillari ularni tutib olishga harakat qiladi. Raqib jamoa a‘zosini tutib olish uchun, unga yetib borib, yelkasiga qo‘l bilan shappatilab-qoqib qo‘yilsa kifoya. Yelkasiga qoqilgan «raqib» bola tutilgan hisoblanadi va jamoadoshlari ham «ushlangunga» qadar o‘yindan chiqib turadi. Shu tariqa raqib jamoaning boshqa a‘zolari ham tutilgach, endi birinchi g‘olib jamoa qochadi. O‘yin shu tariqa bolalar qiziqishiga ko‘ra davom etadi.

O‘yinning ahamiyati:

- bolalar yugurib, chiniqadilar;
- raqibni tutish uchun jon-jahdi bilan birgalashib harakatlanadilar;
- ularda jamoaviylik ko‘nikmasi shakllanadi;
- bolalar bir-birlarini qiynamaydilar, ozor bermaydilar;
- hech kim jarohat olmaydi;
- bola jismonan baquvvat, ruhan tetik bo‘lib ulg‘ayadi.

Davlat o‘quv dasturida bolaning o‘yin o‘ynash huquqi tan olinadi, o‘yinning bola uchun ahamiyati, uning pedagogik imkoniyatlari ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda inobatga olinadi. O‘yin maktabgacha yoshda yetakchi faoliyat bo‘lib, o‘yin orqali bolalarni ta’lim oladi va jismoniy rivojlanadi. Xalq milliy o‘yinlari aynan shunday rivojlanishni ta‘minlab beradi, masalan “Arqon tortish” o‘yini misol tariqasida quyida keltirish mumkin.

O‘yinning nomi: **Arqon tortish**

O‘yin shartlari: pedagog bolalarni teng nafardan 2 jamoaga ajratadi va har ikki gurux bir-biriga raqib ekanligi tushuntiriladi. O‘yinni o‘tkazish paytida o‘rtaga hakam tayinlanadi. (Pedagogning o‘zi hakamligni bajaraveradi). Ikkala jamoa o‘yinchilari bir-birlari bilan yuzma-yuz turadilar. O‘rtada ko‘ndalang chiziq chiziladi. Arqonning ham o‘rtasiga qizil ip bog‘lab qo‘yishadi.

O‘yinning borishi: Hakam nazorati ostida 2 jamoa a‘zolari arqonni tortishga ruxsat beriladi. Qaysi jamoa a‘zolari raqiblarni chegara chizig‘idan olib o‘tsa, o‘yin to‘xtatiladi va g‘oliblik e‘lon qilinadi.

O‘yinning ahamiyati:

- bolalarda chaqqonlik, epchilik tarbiyalanadi;
- jonkuyarlik shakllanadi
- ma‘suliyat ortadi.

O‘yin – bu bolani o‘zini va atrofidagi dunyoni o‘rganishga undaydi. O‘yinda bolalarning tengdoshlari va pedagogi bilan o‘zaro munosabati takomillashadi, sabr qilish, o‘zini tuta bilish ma‘suliyatlari rivojlanadi. Malasan, milliy xalq o‘yinlaridan biri “Dim-Dim”dir.

O‘yinning nomi: **Dim-Dim**

O‘yin sharti: pedagog bolalarni teng ikki guruxga ajratib, 2 jamoani tashkil etadi va o‘zaro raqib ekanliklarini tushuntiradi, o‘zi esa o‘yinni kuzatib turuvch hakamligini aytadi. Sanama yordamida qaysi bir jamoa o‘yinni boshlab berishini belgilaydi.

O‘yinning borishi: hakam ishorasi ostida o‘yin boshlanadi. 1-chiqqan jamoa “Guldir-gup” deydi. 2-jamoa a‘zolari qanday holatda bo‘lmasinlar qotib qolishlari, hech qanday harakatni bajarmasliklari, gapmasliklari zarur bo‘ladi. 1- chiqqan jamoa raqib guruhni gapirtirish uchun turli harakatlarni bajarishadi. Masalan, sh‘er, topishmoq aytishi, kulguli harakatlarni bajarishi, borib qitiqlashi, termulishi va h.k. Lekin 2-gurux a‘zolari bu harakatlardan ta‘sir lanib yo kulib, yo gapirib yuborsa mag‘lub bo‘ladi. Mag‘lub jamoa a‘zolari she‘r, qo‘shiq, topshmoq aytish shartlarini bajarishadi. O‘yin 2-jamoa bilan davom ettiriladi.

O‘yinning ahamiyati:

- bolalarda chidamlilik, kuchlilikni tarbiyalaydi
- iroda va ma‘suliyatni his etishni shakllantiradi.

O‘yin bolalarni boshqa bolalar bilan hamkorlik qilishga imkoniyati yaratadi, ularga tavakkal qilish, xato qilish va qiyinchiliklarni yengish imkonini beradi. O‘yin bolalarning tasavvurini, ijodkorligini va jismoniy harakatlarini rivojlantiradi. O‘yin– bolaning yoki bolalar guruhining tashabbusi bilan to‘laligicha erkin, pedagogning minimal yoki to‘liq ishtirokisiz - pedagog tomonidan tashkil etilgan va uning ko‘rsatmalari yordamida amalga oshiriladi. Masalan, xalq milliy o‘yinlardan biri “Zo‘r bilak” ni olaylik. Bu o‘yinni tarbiyachi xonada, sport maydonchasida, sport zallarda tashkil etsa bo‘ladi, bolalar qiziqadilar.

O‘yinning nomi: **Zo‘r bilak**

Oyin shartlari: pedagog bolalarni sanamalar yordamida 2 jamoaga ajratadi va oyinni borishini tushuntiradi. O‘yin bolalarni ixtiyoriy yotgan va o‘tirgan holda otkaziladi. O‘yinda kimning bilagi kuchlilik aniqlanadi.

O‘yinning borishi: Bolalar yotgan yoki o‘tirgan holda o‘ng yoki chap qo‘llarining panjalarini bir-biriga kiyishtiradilar. Pedagog ishorasi bilan bilaklarining kuchini sinaydilar. Kimning bilagi yerga borib tegsa, yutqazgan hisoblanadi.

Oyinning ahamiyati:

- bolalarda qiyinchiliklarni yengish imkonini topa olish ko‘nikmalarini shakllantiradi;
- bolalarda kuchlilikidan faxrlanish hissi paydo bo‘ladi.

O‘zbek milliy o‘yinlarimizning bola hayotidagi tarbiyaviy ahamiyati katta. Shuning uchun ta‘limiy va tarbiyaviy jarayonlar o‘yin o‘ynash imkoniyatini ta‘minlashi kerak, rivojlantiruvchi muhit esa o‘yin o‘ynash imkoniyatini ochishi zarur. O‘yin uchun sharoit yaratish, ya‘ni bolalarni yetarli vaqt, joy, qo‘llab-quvvatlovchi resurslar va o‘yinchoqlar bilan ta‘minlash juda muhimdir. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlaydigan pedagoglar bolalar o‘yiniga yordam berishlari muhim.

O`zbek milliy o`yinlarining turlari juda ko`p bo`lib, O`zbekiston viloyatlari bo`ylab tarqalgan, lekin o`sha viloyatning urf-odatlarini, turmush sharoitlari, so`zlashuv va imkoniyatlari o`yin nomi va o`yin shartlarini biroz o`zgartirilgan shaklda aks etadi. Shuning uchun ham o`yin har xil bo`lishi mumkin:

- bolalar guruhining tashabbusi bilan to`lalgicha erkin o`ynaladigan;
- pedagogning minimal yoki to`liq ishtirokisiz o`ynaladigan
- pedagog tomonidan tashkil etilgan va uning ko`rsatmalari yordamida amalga oshiriladigan o`yinlar.

Xulosa qilib aytganda, o`zbek xalq milliy o`yinlarimiz xalqimizning tarixiy taraqqiyoti bilan bog`liq bo`lib, bugungi kungacha xalqning milliy qadriyatiga, turmushining bir bo`lagiga va bolasini tarbiyalashi uchun muhim vositasiga aylangan foaliyatdir. O`zbek xalq milliy o`yinlarining mazmuni ijtimoiy hayot o`zgarishi bilan o`zgargan bo`lsada, lekin o`z maqsadini saqlab qolgan jarayondir. Bu jarayon tabiiy usul bo`lib, bolaning shaxsiyati, uning bilish, ijtimoiy-hissiy, ijodiy va jismoniy jihatlarini rivojlantiradi. Zero, bolaligidan milliy o`yinlarni o`ynab katta bo`lgan bolalar qalbi pokiza hislarga to`lgan bo`ladi, bolalarni harakatga undaydi, jismoniy va ma`nan kamolotga yetaklaydi. Shuning uchun ham milliy o`yinlarimiz-milliy qadriyat sifatida bugungacha o`z qimmatini saqlab kelmoqda.

#### Adabiyotlar ro`yxati

1. Энциклопедический словарь по физической культуре и спорту. Том 3 Гл. ред.- Г. И. Кукушкин. М., Физкультура и спорт.
2. Muhammad Sodiq Qoshg`ariy. Odob as-solihin. UzR FASHI toshbosmasi. № 4982. – Toshkent, 1889.
3. Karimjon Rahimqulov. Milliy harakatli o`yinlar. Toshkent-2012
4. <https://kun.uz/news/2022/03/20>